



AMENOREYA SABABLARI VA BELGILARI

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
o'qituvchisi*

Qayumova Dilnozaxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada amenoreya sabablari va belgilari haqida aytib o'tilgan va muallif tomonidan muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pubertat davr, atrezia hymeni, laktatsiya, anomaliya, fiziologik, patologik, bachadon atreziyasi.

Amenoreya – 6 oydan ko‘proq muddatgacha hayz ko‘rmaslik. Amenoreya - bu tug‘ruq yoshida (16-45 yosh) olti oydan ortiq davom etadigan hayz ko‘rishning yo‘qligi. Amenoreya homiladorlik natijasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u organizmda turli xil buzilishlardan dalolat berishi mumkin.





Fiziologik amenoreya – qiz bola balog‘atga yetguncha, prepubertat davrda, klimakterik (menopauza) davrda, homiladorlik davrida, bir necha vaqtgacha bola emizish (laktatsiya) davrida hayz ko‘rmasligi fiziologik amenoreya hisoblanadi. Patologik amenoreya – azaldan hayz funksiyasi bo‘lmay kelayotgan bo‘lsa birlamchi amenoreya, qandaydir kasallik munosabati bilan davom etib kelayotgan hayz to‘xtalib qolsa, ikkilamchi amenoreya deyiladi.

Soxta amenoreya – qizlik pardasi teshigi bo‘lmasligi (atrezia hymeni), qinning bo‘lmasligi (atrezia vagini), bachadon bo‘yni kanalining bitib qolishi kabi anomaliya holatlarida siklik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan bachadon shilliq qavatidagi funksional qatlam ko‘chib, hayz qoni tashqariga chiqmasdan qolish hollari soxta amenoreya hisoblanadi. Soxta amenoreyalar hamshiralik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda qishloq joylarida yashaydigan qiz bolalarda balog‘atga yetsa ham hayz ko‘rmasligi, bir necha sikldan keyin qorinda hayz ko‘rik kunlari kelganda qattiq og‘riq bo‘lishi, qorin pastki qismida shish paydo bo‘lishi ko‘pincha qiz bolalar appenditsit yoki o‘tkir qorin diagnozi bilan operatsiya bo‘lishiga, qorin bo‘shlig‘ida o‘sma bor degan taxmin qilinishiga sabab bo‘ladi. Bunday xatolar amaliyotda ko‘p uchraydi. Shuning uchun birinchi marta qizlar bilan hamshira duch keladi, buni yaxshi bilishi zarur.

Chin amenoreya – qiz bolaning jinsiy yetilish davridan boshlab umuman hayz ko‘rmaslik holati. Aksariyat hollarda bachadon atreziyasi (bachadon bo‘lmasligi), tuxumdonlar gipoplaziyasi natijasida organizmning estrogen gormonlari bilan ta’minlanmasdan qolishi, gipofiz – gipotalamus sistemasidagi keskin o‘zgarishlar sabab bo‘lishi mumkin.



Amenoreya belgilari

Amenoreyaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

Bepushtlik

Ichki organlar ishining buzilishi

Semirib ketish

Hayz ko‘rishning to‘xtashi

Shuningdek:

Maskulinizatsiya (ayollarda erkaklik belgilarining namoyon bo‘lishi);

Girsutizm (erkaklar tipi bo‘yicha sochlarning ortiqcha o‘sishi);



Agar sizda ham shunga o`xshash belgilar borligini aniqlasangiz, darhol [shifokorga murojaat qiling](#). Kasallikning oqibatlarini bartaraf etishdan ko`ra oldini olish osonroq

Diagnostika

[Ginekologik diagnostika](#) Agar ayolda ko`rinadigan fiziologik sabablersiz hayz ko`rmasa, organlar va tizimlarning holatini baholash uchun organizmni to`liq tekshirish talab qilinadi. Diagnostika har qanday zamonaviy ginekologik klinikada o`tkazilishi mumkin.

Amenoreyani davolash

Amenoreyani davolash uning sabablariga bog`liq:

Haqiqiy amenoreyada uni keltirib chiqargan kasalliklarni bartaraf etish zarur.

Soxta amenoreyada jinsiy yo`llar o`tkazuvchanligini tiklash va qon ketishi uchun to`sqliarni bartaraf etish talab qilinadi.

Birlamchi amenoreyada ham, ikkilamchi amenoreyada ham kompleks terapiya talab qilinadi. Agar qaytmas o`zgarishlar yuz bermasa, davolash odatda samarali bo`ladi. O`z-o`zini diagnostika qilish va o`z-o`zini davolashdan qochish va har qanday xavotirli alomatlar bilan ginekolog shifokorga murojaat qilish muhimdir.

Xavf

Agar amenoreya davolanmasa, u bepushtlikka olib kelishi mumkin.

Xavf guruhi

Xavf guruhiga quyidagilar kiradi:

Irsiy, asab-ruhiy yoki orttirilgan somatik kasalliklarga chalingan shaxslar.



Og‘ir tug‘ruqni boshdan kechirgan yoki homiladorlikni kech muddatlarda to‘xtatgan ayollar.

Oldini olish

Amenoreyaning oldini olish uchun quyidagilar muhimdir:

Abortdan qochish kerak, chunki abort yoki og‘ir tug‘ruqdan keyin ikkilamchi amenoreya tez-tez uchrashi mumkin.

Ayollar jinsiy sohasining ham, boshqa a’zolarning ham surunkali kasalliklarini o‘z vaqtida davolash.

Bugungi kunda ko‘plab zamonaviy ginekologiya va akusherlik klinikalari mavjud bo‘lib, ularda ayollar salomatligining ko‘plab muammolarini samarali hal qilishga qodir yuqori malakali mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Asosiysi - davolanishni kechiktirmaslik.

Bachadondan asiklik, ya’ni siklga aloqasiz holda qon kelib turish hollari (metroragiylar) odatda hayz funksiyasining buzilishiga bevosita aloqador bo‘lmaydi va ayollar jinsiy a’zolarida o‘smalar paydo bo‘lganda kuzatiladi. Asosan submukoz fibramiomalar, bachadon bo‘yni va tanasi raki rivojlangan hollarda. Bachadondan disfunktional, yuvenil qon ketish, anovulyator (bir fazali) qon ketish hollari, gipotalamusgipofiz-tuxumdonlar-bachadon sistemasidagi neyroendokrin reguliyatsiyaning patologik tarzda o‘zgarishi munosabati bilan boshlanadi. Ayni vaqtida bir yoki bir necha follikula funksiyasi buzilib, uzoq cho‘zilib, ovulyatsiya sodir bo‘lmaydi, sariq tana hosil bo‘lmaydi. Bunday patologik jarayonlarda tuxumdonlarda siklik ravishda jinsiy gormonlar ishlanib chiqishi buziladi va odatda ayol organizmiga estrogenlar uzoq ta’sir etib turadi.

Klinikasi: uzoq qon ketish, ko‘p qon ketish, kamquvvatlik, ikkilamchi anemiya. Diagnostika: bachadon tanasining shilliq pardasidan diagnostika maqsadida qirma olib,



tekshirib ko‘rilganda endometriyning giperplaziyaga uchragani ma’lum bo‘ladi. Bazal haroratni o‘lchash, qin epiteliyasining sitologiyasini aniqlash muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Davolash. Gormonal gemostaz deganda 3-5 kun davomida (ketayotgan qon to‘xtaguncha) esterogen gormonlari (sinestrol, diyetilstelbistrol va boshqalar), progesteron gormonidan ineksiya qilinib, organizmni gormonlar konsentratsiyasini oshirib qonni to‘xtatish mexanizmi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

**1. Onalikda hamshiralik parvarishi Ya.N. ALLAYOROV,
B.A.JUMANOV, F.Q.ASQAROVA**

**2. Bolalar kasalliklari DAMINOV T.A., XALMATOVA B.T.
BOBOYEVA U.R.**

3. Internet saydlari:

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://fayllar.org/>